XALQ DEPUTATLARI G‘ALLAOROL TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 13-iyun VI-66-82-3-45-K/24 G‘allaorol tumani

G‘allaorol tumanining 2024 yil mahalliy byudjetining daromad va xarajatlar qismiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va Byudjet kodeksining 27- hamda 147-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 5 yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 9 fevraldagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 79-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 21-fevraldagi 03/35-6-4041-sonli tavsiya xati hamda Xalq deputatlari viloyat kengashining 2024 yil 15 maydagi VI-53-111-3-0-K/24-sonli qarorlarini inobatga olib, tuman mahalliy byudjetining daromadlar yoyilmasida rejalashtirilgan “Qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliqlarni yetishtirish (o‘stirish) uchun foydalanilgan suv hajmi, shu jumladan dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq”lar miqdori 40 foizgacha oshirish hisobiga moliyalashtirish belgilansin. “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muasasasining saqlash xrajatlarini shakllantirish maqsadida tuman mahalliy byudjetining daromad va xarajat reja ko‘rsatkichlari 1- va 2-ilovalarga mos ravishda oshirilsin. Xalq deputatlari tuman kengashining 2023 yil 29 dekabrdagi “G‘allaorol tumanining 2024 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash xaqida”gi VI-61-174-3-45-K/23-sonli qarori bilan tasdiqlangan mahalliy byudjetining 2024 yil uchun daromadlar va xarajatlar qismiga ilovalarga asosan o‘zgartirish kiritilsin.

2. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Turdimuratov)ga mahalliy byudjetga tegishli o‘zgartirishlar kiritish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman Suv yetkazib berish xizmati davlat muasasasi (O.Begiqulov)ga ajratilayotgan mablag‘dan maqsadli foydalinish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi OQBOYEV JALOLITDIN JAMOLOVICH

Xalq deputatlari G‘allaorol tumani
Kengashining
2024-yil 13-iyundagi
VI-66-82-3-45-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2024 yil uchun tuman mahalliy byudjetining tasdiqlangan daromadlar reja ko‘rsatkichlariga “Suv resurslaridan foydalanganlik uchun” solig‘ining oshirilishi munosabati bilan kiritilayotgan o‘zgartirishlar miqdori

ming.so‘mda

№	Tuman nomi	Bo‘lim	Paragraf	Daromad kodi	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq
1	G‘allaorol	3145	204	3145204	91 061.0

Xalq deputatlari G‘allaorol tumani
Kengashining
2024-yil 13-iyundagi
VI-66-82-3-45-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2024 yil uchun tuman mahalliy byudjetining tasdiqlangan xarajatlari reja ko‘rsatkichlariga “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasining tashkil yetilishi munosabati bilan kiritilayotgan o‘zgartirishlar miqdori

ming.so‘mda

№	Hudud nomi	Byudet mablag‘i taqsimlovchi nomi	Bo‘lim	Kichik bo‘lim	Bob	Kiritilgan o‘zgartirish	
						Kamaytirildi	Ko‘paytirildi
1	G‘allaorol tumani	Tuman Suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi	7042	480	018	0	389 091.0